Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	1036
Uskenbaeva Dilnoza Boxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxona darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз кизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlar hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	



KLASTERLAR HISOB SIYOSATIDA BOSHQARUV HISOBINING METODOLOGIK ASOSLARI

Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich

TDIU "Buxgalteriya hisobi" kafedrası dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

tshazizbek@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0163-7699

Annotatsiya: Mazkur maqolada klasterlar faoliyatini tashkil qilishning zamonaviy yechimi sifatida ularning boshqaruv hisobi bilan bog'liq jihatlari chuqur tahlil qilingan. Xususan, klasterlarning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari, shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimida boshqaruv hisobi tamoyillarini joriy etish bo'yicha yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, klasterlar faoliyatini samarali boshqarish, ularning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda boshqaruv hisobining axborot manbai sifatidagi ahamiyati, shuningdek, hisob siyosatida uslubiy asoslarni belgilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: klaster, boshqaruv qarorlari, boshqaruv hisobi, hisob siyosati, metodologiya.

Abstract: This article explores the cluster model as a modern approach to organizing economic activity, focusing on the integration of managerial accounting within the accounting system. It analyzes the organizational and legal mechanisms of clusters and provides recommendations on developing methodological foundations for management accounting policies. The aim is to enhance effective cluster management and improve the development of forecast indicators through reliable informational support.

Key words: cluster, management decisions, managerial accounting, accounting policy, methodology.

Аннотация: В данной статье кластерный подход рассматривается как современное решение в организации хозяйственной деятельности. Особое внимание уделено вопросам внедрения управленческого учета в систему бухгалтерского учета в условиях кластерной модели. Также проанализированы организационно-правовые механизмы функционирования кластеров и представлены рекомендации по формированию методологических основ учетной политики в части управленческого учета для эффективного управления и прогнозирования показателей деятельности кластеров.

Ключевые слова: кластер, управленческие решения, управленческий учет, учетная политика, методология.

KIRISH

Hozirgi kunda xorijiy tadqiqotlar asosida boshqaruv hisobining amaliy qo'llanishiga doir zamonaviy g'oyalarni tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Boshqaruv hisobi kelajakka yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, unda boshqaruvchilarning asosiy e'tibori rivojlanish va raqobatdosh ustunlikka erishish maqsadida hisob siyosatida boshqaruv maqsadlariga yo'naltirilgan strategik rejalashtirish, tahlil va nazoratga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni belgilashga qaratiladi.

An'anaviy buxgalteriya tizimida esa bu kabi yondashuvlar me'yoriy hujjatlar, ko'rsatmalar, hisob siyosati va hisob-usullarini qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv hisobi bilan tashkilot tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkiliy, uslubiy va me'yoriy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalasi korxonalarning o'zlari tomonidan mustaqil hal etiladigan masaladir.

Albatta, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan agro-sanoat klasterlari ko'p tarmoqli yo'nalishlarni qamrab olgan bo'lib, ularning boshqaruv maqsadlari uchun belgilangan strategik yo'nalishlari klaster manfaatlariga qaratilgan. Biroq, strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda hisob, ayniqsa boshqaruv hisobi axborotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hisob siyosatini ishlab chiqishda boshqaruv hisobining uslubiy asoslarini belgilash, hisob-axborot ko'rsatkichlarining aniqligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda agrosanoat tarmoqlarini isloh qilishda klasterlarni tashkil etish muhim yo'nalish sifatida belgilanib, ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-



tadbirlari to'g'risida" PF-151-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-205-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrda "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14-son Farmoni shular jumlasidandir.


Klaster – bu qo'shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilarini (fermerlar, qayta ishlovchi korxonalar, eksportyorlar) yagona maqsad sari birlashtirgan korxonalar guruhidir. Klasterlar tizimi – xomashyo yetishtirishdan boshlab, uni qayta ishlash va tayyor mahsulotni iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan butun jarayonni o'z ichiga olgan tizimdir. Boshqacha aytganda, klaster modeli nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarini ham qamrab oladi. U zamon talablariga mos holda rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi va erkin, samarali mehnat qilish imkonini yaratadi. Eng muhimi, klasterlar hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi hamda iqtisodiy jihatdan ustuvor tarmoqlar va loyihalarni aniqlashga xizmat qiladi.

Klasterlar faoliyatining asosiy maqsadi – kam xarajat evaziga ko'proq daromad olish va moliyaviy holatni yaxshilashdir. Bu maqsadga erishishda nafaqat samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, balki hisob ma'lumotlarining shaffofligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, boshqaruv hisobining uslubiy asoslarini belgilash hisob siyosatining ajralmas tarkibiy qismidir.

Mazkur yo'nalishda qo'llaniladigan hisob-tahliliy vositalarni chuqur tahlil qilish zarur. Chunki buxgalteriya ma'lumotlari va boshqaruv hisobi registrlari tahlili asosida yaratilgan yakuniy mahsulotlar boshqaruv hisobot shakllari hamda tizimdan tashqari boshqaruv vazifalarini hal etishga qaratilgan boshqa maqsadli hisobotlardir.

Muayyan korxonaning o'ziga xos xususiyatlari va u yerda boshqaruv hisobi tizimini shakllantirishdagi individual yondashuvlar hisobga olingan holda, buxgalteriya jarayonlarini tashkiliy-kommunikatsion asosda yo'lga qo'yish zaruriyati vujudga keladi.

Quyidagi 1-rasmda boshqaruv hisobining hisob ob'ekti sifatidagi tasnifi va hisob siyosatida uni joriy etishning umumlashtirilgan jarayoni uslubiy asosda aks ettirilgan (1-rasm)



1-rasm. Hisob siyosatida boshqaruv hisobini joriy etishning umumlashtirilgan jarayoni.

Agrosanoat klasterlarida boshqaruv hisobining uslubiy asoslari hisob siyosati doirasida tashkiliy nuqtai nazardan qaralganda, bu jarayon kompleks axborot-tahliliy boshqaruv tizimi sifatida shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlarni to'plash, kuzatish va tizimli yondashuv asosida boshqaruv hisobi tushunchasi tadqiq qilindi. Boshqaruv hisobi maqsadlari uchun hisob siyosatining uslubiy asoslarini ishlab chiqish hamda uning rivojlanish darajasini aniqlash usullari qo'llanildi. Shuningdek, boshqaruv hisobini samarali tashkil etish maqsadida qiyosiy va tizimli tahlil hamda iqtisodiy-statistik usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agrosanoat klasterlari tomonidan sub'yektning kelajakdagi moliya-xo'jalik faoliyatini ma'lum darajada bashoratlash maqsadida prognoz ko'rsatkichlari boshqaruv hisobi tizimidagi asosiy vositalardan biri sifatida qo'llaniladi. Odatda ushbu ko'rsatkichlar 3–5 yillik muddatlarni qamrab olgan holda ishlab chiqiladi. Bunda sub'yektning moliyaviy mas'uliyat markazlari tomonidan hisobot davrlarini hisobga olgan holda prognozlar



batafsil bayon qilinishi lozim. Ular darajasida nafaqat boshqaruv maqsadlariga erishish uchun turli ko'rsatkichlar bosqichma-bosqich baholanadi, balki rejalashtirilgan ko'rsatkichlar sezilarli o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa, ular choraklik yoki yillik davrlar bo'yicha tuzatilishi kerak.¹

Afsuski, bugungi kunga kelib, sub'yektlarda boshqaruv hisobi maqsadlari uchun prognoz ko'rsatkichlarini tuzish bo'yicha uslubiy masalalar sohaga oid adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Shu bilan birga, ayrim manbalarda, xususan, V.V. Pankov tomonidan prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirishning eng ko'p qo'llaniladigan umumiy usullari bayon etilgan.

Avvalo, tarmoq va boshqaruv tashkilotining tarkibiy bo'linmalari shakllantirilishi zarur, so'ngra korxona ichida moliyaviy xarajatlar markazi joriy etilishi lozim. Ushbu tarkibiy bo'linmalar boshqaruv organlari, rahbar yoki bo'lim boshlig'i shaklida bo'lishi mumkin.

Odatda prognoz ko'rsatkichlari yo'nalishlar bo'yicha umumlantirilgan shaklda tuziladi va ular bevosita iqtisodiy faoliyatni baholash hamda moliyaviy tahlil uchun belgilangan ko'rsatkichlar to'plamiga asoslanadi. Bu ko'rsatkichlar an'anaviy balans elementlari singari ikki bo'limdan – aktivlar va passivlardan – iborat bo'ladi.

Aktivlar va passivlarning jamlangan moddalari operatsion smetalar, daromad va xarajatlar smetasi, pul mablag'lari harakati byudjeti hamda byudjet davri boshidagi ko'rsatkichlar asosida shakllantiriladi. Ushbu ma'lumotlar asosida hisobot davri yakuniga qadar tuziladigan va kutilayotgan balans ko'rsatkichlari aniqlanadi. Rejalashtirish davridagi operatsiyalar hisobga olingan holda bu ko'rsatkichlar oshishi yoki kamayishi mumkin.

Aktiv va passivlarning jamlangan moddalari, operatsion smetalar, daromad va xarajatlar smetasi, pul mablag'lari harakati byudjeti hamda prognoz balansining bajarilishi tahlili kompaniya rahbariyatiga texnologiyadagi avtomatik boshqaruv tizimlariga o'xshash og'ishlarni boshqarish mexanizmini qo'llash imkonini beradi. Bunda menejerning asosiy e'tibori prognoz ko'rsatkichlaridan sezilarli og'ishlarga ega bo'lgan ko'rsatkichlarga qaratiladi.

Shuningdek, prognoz balansining moddalari va rejalashtirilgan hamda haqiqiy qiymatlar o'rtasidagi farqlar boshqaruvning har qanday darajasida tahlil qilinishi mumkin. Korxona yoki bo'lim ma'lumotlarining o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlaridan og'ishi ham alohida e'tiborga olinadi. Vaqt o'tishi bilan ko'rsatkichlarning tendensiyalarini aniqlash va tahlil qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv vositasi sifatida prognoz balans ko'rsatkichlari menejerlarga nafaqat amaldagi faoliyat holatini baholash, balki belgilangan vazifalarni aniqlashtirish imkoniyatini ham beradi. Bu esa xo'jalik faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ichki muhitdagi o'zgarishlarga moslashish, boshqaruvdagi xatolik va suiste'molliklarning oldini olish hamda rejalar asosida qaror qabul qiluvchi mutaxassislar o'rtasida yagona fikr uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, maqsadlar, strategiyalar va ularni amalga oshirish bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlar hamda ushbu rejalarning miqdoriy ifodasi hisoblanadigan prognoz balans ko'rsatkichlari tahlil uchun zarur axborot bazasini yaratadi va iqtisodiy samaradorlik bo'yicha belgilangan yillik ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli erishish imkonini beradi.

Boshqaruv hisobining integratsiyalashgan tizimiga kiritilgan prognoz balans ko'rsatkichlari faqat moliyaviy ko'rsatkichlargagina asoslanmaydi. Ularning ajralmas qismi sifatida tizimdan tashqarida qayd etiladigan bir qator qo'shimcha moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar ham hisobga olinishi lozim. Ular boshqaruv qarorlariga ta'sir qiluvchi uslubiy yondashuv sifatida hisob siyosatida aks ettirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, asosiy moliyaviy moddalardan farqli o'laroq, moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar strategik xaritalarda qayd etilganligi sababli prognoz balans ko'rsatkichlarida bevosita aks ettirilmaydi. Ammo bizning fikrimizcha, prognoz balans ko'rsatkichlariga ekologik va ijtimoiy maqsadlar bilan bog'liq xarajatlarni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrda "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarorida² belgilangan tamoyillar asosida ekotizim samaradorligi ko'rsatkichini kiritish mumkin. Mazkur qarorda, xususan, "2023-yil 1-iyundan boshlab mahsulot ishlab chiqarishda ekologiya va atrof-muhitga ta'sirni cheklash bo'yicha qo'yilayotgan talablar asosida 'yashil sertifikatlar' tizimi joriy etiladi" deb belgilangan.

Bunda belgilanadigan strategik maqsadlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. Ijtimoiy yo'nalishdagi ko'rsatkichlar:

Xodimlar ish haqining o'sishi;

Malaka oshirish dasturlari;

Mehnat unumdorligini oshirish;

Kompaniya xodimlari sodiqligini shakllantirish.

¹ Панков, В. В. Стратегический управленческий учет и теория нечетких множеств / В.В.Панков, В.Ф.Несветаев // Международный бухгалтерский учет. – 2012. – № 25 (223). – С. 15–19.

² <https://lex.uz/docs/6303230>



2. Ekologik yo'nalishdagi ko'rsatkichlar:

Chiqindilar hajmini kamaytirish;

Atmosferaqa chiqariladigan zararli moddalarni qisqartirish;

Energiya samaradorligini oshirish;

Atrof-muhitni muhofaza qilish.

Umuman olganda, boshqaruv hisobi korxona faoliyatining asosiy strategik jihatlarini ifodalovchi quyidagi besh asosiy komponentga asoslanadi: moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, iste'molchi komponenti, ichki jarayonlar, o'sish va rivojlanish strategiyasi, hamda strategik boshqaruv funksiyalari. Ular quyidagicha tavsiflanadi:

Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat: buxgalteriya hisobi va boshqaruv tizimining an'anaviy elementlari sifatida, korxonaning umumiy iqtisodiy salohiyatini aks ettiradi.

Iste'molchi komponenti: korxonaning raqobat muhitidagi pozitsiyasini ifodalaydi va strategik maqsadlarning iste'molchiga yo'naltirilganlik darajasini baholash imkonini beradi.

Ichki jarayonlar: mahsulot va xizmatlar sifati, texnologik jihatlar, jarayonlarning raqobatbardoshligi kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

O'sish va rivojlanish strategiyasi: xodimlar salohiyati, innovatsion texnologiyalar, madaniy muhit va malaka kabi omillarni qamrab oladi.

Strategik boshqaruv funksiyalari: strategik tashabbuslar, rejalashtirish, tashqi va ichki muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish hamda manfaatdor tomonlar, raqobatchilar pozitsiyalarini baholashga yo'naltirilgan faoliyatni o'z ichiga oladi.


Bugungi kunda jahon amaliyotida zamonaviy boshqaruv hisobi tizimini shakllantirish bo'yicha turli uslubiy yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida eng samarali deb baholangan modellardan biri 2-rasmda keltirilgan.

2-rasm. Zamonaviy boshqaruv hisobi tizimini shakllantirishning uslubiy yondashuvlari.

Keltirib o'tilgan zamonaviy usullar orqali boshqaruv hisobini shakllantirish korxonaning iqtisodiy faoliyati to'g'risida ishonchli va o'z vaqtida ma'lumot olish, resurslardan oqilona foydalanishni nazorat qilish hamda foydalanuvchilarni boshqaruv hisobi tizimi tomonidan yaratilgan ma'lumotlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Bu esa buxgalteriya jarayonining kompleks tizimini yaratishni taqozo etadi.

Korxona keltirilgan usullardan qaysi birini o'z maqsadlari uchun belgilashda ishlab chiqarishning texnologik jihatlarini inobatga olgan holda hisob siyosatida uning uslubiy asoslarini keltirib o'tishi lozim.

Tadqiqotlar natijasida, korxonalarda boshqaruv hisobi maqsadlari uchun ishlab chiqiladigan hisob siyosati quyidagi uch bosqichdan iborat ekani aniqlangan (3-rasm).



3-rasm. Boshqaruv hisobida hisob siyosatini tashkil etish bosqichlari³

3 Tadqiqot natijalari asosida muallifi tomonidan tuzilgan.



Boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etish korxonaning tashkiliy va ishlab chiqarish tuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim omillardan biri bu boshqaruv faoliyati bo'lib, bu jarayonda menejerlar ishonchli va dolzarb axborotga ega bo'lishi zarur. Axborot ta'minoti orqali bo'limlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, har bir bo'limning korxona ma'muriyati oldidagi vakolat va majburiyatlari aniq belgilanadi hamda korxona maqsadlariga erishishda barcha faoliyat turlari izchilligi ta'minlanadi. Shu bilan birga, axborot tizimi korxonaning tashkiliy tuzilmasi ehtiyojlariga bo'ysunadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga ta'sir etuvchi tashkiliy-huquqiy shakllarning xilma-xilligi, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, huquqiy va texnologik omillar, korporativ maqsad va vazifalar, boshqaruv vakolatlari darajalari, operativ va strategik boshqaruv ehtiyojlari boshqaruv hisobi ma'lumotlarini yig'ish, to'plash hamda qayta ishlash tizimining shakllanishida qo'llaniladigan uslubiy modellarning turli variantlarida o'z aksini topadi. Amaldagi buxgalteriya jarayonining uslubiy modeliga asoslanib, strategik boshqaruv hisobi tizimini shakllantirishda turli yondashuvlardan foydalanish mumkin.

Raqobat muhitining jadal rivojlanishi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati strategik qarorlar qabul qilish, rejalashtirish va nazorat jarayonlarida yuqori sifatli buxgalteriya va tahliliy axborot bilan ta'minlangan bo'lishi, shuningdek, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos usul va vositalar to'plamiga ega bo'lishi zarur.

Shu sababli, turli sharoitlarda qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi va tahlil usullari umumiy tamoyillarga asoslangan bo'lsa-da, ularning amaliy qo'llanish shakli va tartibi har bir boshqaruv darajasida mavjud strategik konsepsiyaga mos ravishda tanlanadi. Agar strategik boshqaruv hisobini tashkil etish shakllari va usullari ular amalga oshirilayotgan darajaga qarab farqlansa, unda xo'jalik yurituvchi subyektning yakuniy strategiyasining samaradorligi individual raqobat strategiyalarining amalga oshirilish darajasi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda strategik boshqaruv hisobi amaliyotda an'anaviy buxgalteriya hisobi kabi qat'iy normativlarga ega emas. Buxgalteriya hisobining bir nechta maqbul variantlari mavjudligi sababli, strategik boshqaruv hisobining aniq yo'nalishini belgilash amaliyotda murakkablik tug'dirmoqda. Shu bois, zamonaviy buxgalteriya hisobi konsepsiyasini shakllantirishda strategik boshqaruv hisobining maqsadlari va yo'nalishlarini aniqlab olish dolzarbligicha qolmoqda.

Albatta, buxgalteriya hisobining umumiy maqsadlariga xizmat qiluvchi universal tamoyillar majmui mavjud. Amaliy nuqtayi nazardan, bunday tamoyillarni tatbiq etish buxgalteriya tizimining boshqa barcha elementlariga nisbatan izchil va o'zgarmas bo'lib qoladi. Boshqaruv hisobining kontseptual o'ziga xosligi esa buxgalteriya hisobining boshqa turlarida qo'llanilmaydigan asosiy tamoyillar bilan bog'liq. Boshqaruv hisobining bunday tamoyillari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yetarli darajada o'rganilgan va batafsil bayon etilgan.

Hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida strategik yondashuv tashqi omillar (sharoitlar) va ichki imkoniyatlar (resurslar) kombinatsiyasiga asoslanadi. Shu sababli, rahbariyat tomonidan strategik pozitsiyani aniqlash va faoliyatning keyingi yo'nalishlari bo'yicha qaror qabul qilishda boshqaruv hisobi doirasida shakllantirilgan tahliliy ma'lumotlarga asoslangan strategik ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv qarorlari tizimini shakllantirishda bitta usul yoki manbaga tayanish yetarli emas. Ma'lumotlarning ko'p qirraliligi nuqtai nazaridan turli xil metodologiyalarning uyg'unlashuvi talab etiladi.

Amaliyotda boshqaruv hisobi doirasida bunday metodologik sintez turli darajadagi mutaxassislarining hamkorligi, bo'lim va bo'linmalar o'rtasidagi uslubiy muvofiqlik, ma'lumot almashinuvi va usullar integratsiyasi orqali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshqaruv hisobining zamonaviy amaliyotida korxonalar foydalanadigan eng muhim vositalardan biri – bu strategik maqsadlarni samarali boshqarish va amalga oshirishga xizmat qiluvchi kompleks samaradorlik ko'rsatkichlaridir. Ushbu ko'rsatkichlardan foydalanish kompaniya faoliyatidagi muammoli yo'nalishlarni aniqlash, rivojlanish va takomillashtirish imkoniyatlarini baholashga imkon beradi.

Kompleks samaradorlik ko'rsatkichlari kompaniyaning hozirgi holatini tahlil qilish va kelajak strategiyasini rejalashtirishda foydalaniladigan, uning iqtisodiy va tashkiliy potensialini ifodalovchi ma'lumotlar majmuidir. Ular strategik boshqaruv hisobi tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tomonidan taklif etilayotgan umumiy yondashuv prinsiplariga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ko'p qirrali axborotlarni – moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Agar barqaror rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy imkoniyatlarini aks ettiruvchi moliyaviy ma'lumotlar to'plamiga asoslangan bo'lsa, u holda moliyaviy ko'rsatkichlarni baholash quyidagi bloklar doirasida amalga oshirilishi kerak:

- boylik holatini baholash;
- moliyaviy barqarorlik va likvidlikni tahlil qilish;
- tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi;
- bozor ko'rsatkichlari va innovatsion faoliyat natijalari;



moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholangan kompleks tahlil.

Masalan, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi joriy qilingan patentlar soni orqali, ishlab chiqarish samaradorligi – amaliyotga joriy etilgan innovatsiyalar darajasi orqali, mehnat resurslaridan samarali foydalanish esa xodimlar malakasi va kasbiy mahoratini oshirish ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, boshqaruv hisobi konsepsiyasining barcha asosiy tamoyillari xo'jalik yurituvchi subyektda kechayotgan jarayonlar va qabul qilingan qarorlar bilan bevosita bog'liq ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.

Shunday qilib, boshqaruv hisobi bo'yicha amaldagi qoidalarni yangilash va kengaytirish, ularni boshqaruv nazariyasi va amaliyotidagi eng so'nggi yutuqlar asosida boyitish, ma'lumotlarni guruhlashning turli usullaridan bir vaqtda foydalanish kabi yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, rekonstruksiya qilingan modul va innovatsion rivojlanish moduli doirasida boshqaruv maqsadlariga xizmat qiluvchi buxgalteriya hisobini tashkil qilish, tahliliy axborotni tayyorlash va uni tahlil qilish jarayonida, hisob siyosatida boshqaruv hisobi uchun mo'ljallangan uslubiy asoslarni joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-noyabrdagi "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-14-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5731033>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6303230>
4. Панков, В. В. Стратегический управленческий учет и теория нечетких множеств / В.В. Панков, В.Ф. Несветайлов // Международный бухгалтерский учет. – 2012. – № 25 (223). – С. 15–19.
5. Bromwich, M. Management Accounting Research: 25 Years On // Management Accounting Research / M. Bromwich. – 2016. – Vol. 31. – P. 1–9.
6. Langfield-Smith, K. Strategic Management Accounting: How Far Have We Come in 25 Years? / K. Langfield-Smith // Accounting, Auditing & Accountability Journal. – 2008. – No. 21(2). – P. 77–79.
7. Toshpulatov A.Sh. Enhancing Cost Accounting Based on International Financial Reporting Standards. American Journal of Management Practice, Vol. 2, No. 1 (Jan, 2025). E-ISSN: 2997-934X. <https://semantjournals.org/index.php/AJMP/article/view/1487/1194>
8. <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627303540327-5870b9c2-be30>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
